

ASOSIY XULOSALAR

- Olingan natijalarga ko'ra, o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holati ularning ta'lim natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- Natijalar kambag'al oilalarning farzandlari vaqtini uy vazifalariga emas, balki boshqa turdagi mashg'ulotlarga (ba'zan mehnat qilishga) sarflashi ularning akademik muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir qilishini ko'rsatdi.
- Ayrim hollarda o'quvchilarning maktabga nonushta qilmasdan kelishi diqqatni jamlashda qiyinchilik tug'dirib, ularning akademik muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir qilishi aniqlandi.



Ta'limdagi tafovutlar: oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati o'quvchilarning akademik natijalariga qanday ta'sir qiladi?

KIRISH

O'zbekistonda bolalarga ta'lim berish va uning sifatini oshirish islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim va uning sifati iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Inson kapitali nazariyasiga muvofiq, bilim, qobiliyat va ta'lim darajasi inson kapitalidagi muhim omillar sanaladi (ing. Becker 1983, Becker 1964). O'z navbatida, inson kapitali iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (ing. Gennaioli v.b. 2012, Wiredu v.b. 2023, Zhang v.b. 2023, Islam va Alam 2022).

Angrist va boshqalar (2021) dunyodagi 164 ta mamlakat bo'yicha olib borgan tadqiqoti asosida iqtisodiy rivojlanishda ta'lim olish uchun sarflangan yillar emas, balki ta'limning sifati (ya'ni standartlashtirilgan testlarning natijalari) muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatidagi tafovutlarni kamaytirish orqali uzoq muddatli rivojlanishga erishish mumkinligini ko'rsatadi (Piao 2024). Shu jumladan, Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining 4-maqsadi ham sifatli ta'limga qaratilgan. Bu o'z navbatida, uzoq muddatli va barqaror rivojlanishda sifatli ta'limning o'zni muhim ekanligini ko'rsatadi.

Ta'limdagi tafovut (yoki notenglik) faqat bir o'quvchining maktabda ta'lim olgan yillaridagi tafovut bilangina emas, balki olayotgan ta'lim sifatidagi tafovut bilan ham o'lchanadi (ing. Torpey-Saboe 2019). Oxirgi yillarda dunyo bo'ylab maktab qamrovi jadal o'sib bormoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, 1970-2018 yillar oralig'ida quyi va o'rta daromadli mamlakatlarda:

- boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olish darajasi 68 foizdan 89 foizga o'sgan;
- o'rta ta'lim bilan qamrab olish darajasi esa 50 foizdan 63 foizga o'sgan;

Ma'lumot uchun: O'zbekistonda maktab ta'limi majburiy bo'lib, deyarli barcha o'quv yoshidagi bolalar maktabda tahsil oladi.

Ta'limning sifati ko'pincha o'quv natijalari bilan baholanadi. Natijalari subyektiv bo'lmagan PISA¹, TIMSS² va PIRLS³ kabi xalqaro standartlashtirilgan testlar ushbu holatda ta'lim sifatini xolis baholash imkoniyatini beradi.

O'zbekistonlik o'quvchilar yuqorida keltirilgan xalqaro test sinovlarida ishtirokchi mamlakatlar orasida o'rtachadan past ball olgan.

Jumladan:

- **TIMSS-2023 test sinovida:**
 - 4-sinflar (58 mamlakat orasida):
 - ◆ matematika fanidan 443 ball bilan 50-o'rin;
 - ◆ tabiiy fanlar 412 ball bilan 54-o'rinni egallagan bo'lsa;
 - 9-sinflar (42 ta mamlakat orasida):
 - ◆ matematika fanidan 421 ball bilan 32-o'rinni;
 - ◆ tabiiy fanlardan 396 ball bilan 39-o'rinni egallagan;
- **PISA-2022 test sinovida (81 ta mamlakat orasida):**
 - ◆ matematika fanidan 364 ball bilan 71-o'rin,
 - ◆ o'qish fanidan 336 ball bilan 80-o'rin,
 - ◆ tabiiy fanlardan 335 ball bilan 80-o'rinni egallagan.
- **PIRLS-2021 test sinovida (57 ta mamlakat orasida):**
 - ◆ o'qish fanidan 437 ball bilan 49-o'rinni olgan.


Yuqorida keltirilgan test sinovlaridan yana shuni xulosa qilish mumkin-ki, o'quvchilarning sinfdan sinfga o'tishida olgan bilimlari xalqaro tengdoshlarinikiga nisbatan pasayib borgan. Boshqacha qilib aytganda, 4-sinf o'quvchilari yuqori sinf o'quvchilariga nisbatan yaxshiroq natija ko'rsatgan. Demak, ushbu o'tish davridagi ma'lum bir muammolar sabab o'quvchilarning akademik natijalari pasayganligini ko'rish mumkin (*1-rasmga qarang*).

¹ PISA (*Programme for International Student Assessment*)– bu IHTT (ing. *OECD*) tomonidan har uch yilda o'tkaziladigan xalqaro baholash bo'lib, 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini, ayniqsa ularning bu bilimlarni real hayotdagi muammolarni hal etishda qanchalik samarali qo'llay olishini tekshiradi.

² TIMSS (*Trends in International Mathematics and Science Study*)- bu XO'U (Xalqaro o'qituvchilar uyushmasi, ing. *International Association of Educators*) tomonidan har to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan, 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholaydigan xalqaro test sinovi.

³ PIRLS (*Progress in International Reading Literacy Study*)- bu XO'U (Xalqaro o'qituvchilar uyushmasi, ing. *International Association of Educators*) tomonidan har besh yilda o'tkaziladigan, 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish va savodxonlik ko'nikmalarini baholaydigan xalqaro test sinovi.

1-rasm. O'zbekistonlik 4- va 9-sinf o'quvchilarining standartlashtirilgan xalqaro test sinovlaridagi natijalari (*ball*)



Manba: TIMMS, PIRLS va PISA xalqaro test sinovi natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Xalqaro tadqiqotlar shu kabi holatlarda ijtimoiy-iqtisodiy holatni o'quvchilarning akademik natijalariga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rsatadi. Qoloq va chekka hududlardagi maktablarda o'qituvchi yetishmasligi yoki ta'lim sifatining pastligi tufayli o'quvchilarning akademik natijalarida yetarlicha o'sish kuzatilmaligi mumkin (ing.Torpey-Saboe 2019). Bundan tashqari, ko'pgina maktab yoshidagi bolalar oilalariga yordam berish maqsadida qo'shimcha ish bilan band bo'lib, muntazam darsga qatnashmasligi jahon tajribasida aniqlangan (ing.Bourdillon va Boyden 2014). Ushbu holatda bir narsani qayd etish lozim, ular maktab bilan qamrab olingan hisoblansa-da, haqiqatda maktab beradigan muhim bilimlarni o'zlashtirmayotgan bo'lishlari ehtimoli yuqori (ing.Torpey-Saboe 2019).

Tadqiqotlarda kambag'al oilalardagi

bolalarda to'yib ovqatlanmaslik va stress tufayli diqqatni jamlashda muammolar bo'lishi, hamda ular uy vazifalarini bajarishda ota-onalaridan yordam olmasliklari aniqlangan. Xalqaro tajribada kambag'al oilalarning farzandlari ayrim hollarda maktabgacha ta'limdan foydalana olmasliklari yoki qo'shimcha o'quv to'garaklariga (repetitorlarga) bormasliklari ehtimoli yuqori (ing.Pells va Woodhead 2014).


O'zbekistonda 2022-yil o'tkazilgan PISA⁴ so'rovi natijalaridan foydalangan holda oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati mazkur oila farzandlarining akademik natijalariga qanday ta'sir qilishi o'rganildi. Tahlil davomida quyidagilar aniqlandi:

- **O'zbekistonda ta'lim natijalari va o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holati o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjud.** Uy

4

So'rov mamlakatimizning turli hududlari bo'yicha 15 yoshli o'quvchilarning javoblarini mujassam etgan bo'lib, uning asosida yaratilgan ma'lumotlar bazasi 202 ta maktab va 7293 nafar o'quvchini qamrab oladi.

2-rasm. Uy xo'jaliklari oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarab o'sish tartibida guruhlanganda turli guruhdagi oilalar farzandlarining PISA test sinovidagi natijalari (*ball*)



Manba: TIMMS, PIRLS va PISA xalqaro test sinovi natijalari asosida muallif ishlanmasi.

xo'jaliklari oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarab o'sish tartibida guruhlanganda, yuqori o'nlikda joylashgan oilalarning farzandlari quyi o'nlikdagi oilalarning farzandlariga nisbatan matematika fanidan 43,7 ball, o'qish fanidan 39,8 ball va tabiiy fanlardan 36,7 ball yuqori natija ko'rsatgani ma'lum bo'ldi (*2-rasmga qarang*).

Repest moduli⁵ asosida qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy holat indeksining⁶ 1 birlikka yaxshilanishi ballarni matematika fanidan 9,5 ballga, o'qish fanidan 9,2 ballga va tabiiy fanlardan 7,9 ballga


yaxshilashi aniqlandi.

- **Natijalar kambag'al oilalarning farzandlari vaqtini uy vazifalariga emas, balki boshqa turdagi mashg'ulotlarga (ba'zan mehnat qilishga) sarflashi ularning akademik muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir qilishini ko'rsatdi.** Uy vazifalarini bajarmaydigan o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga ko'ra, quyi o'nlikdagi oilalar farzandlarining 6,7 foizini, yuqori o'nlikdagi oilalar farzandlarining esa 3,3 foizini tashkil etadi (ular orasidagi farq 3,4 foiz bandi). O'quv haftasi davomida haq evaziga mehnat

⁵ Repest modeli turli vaznlarga ega bo'lgan so'rovnomalar natijalarini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan.

⁶ Ijtimoiy-iqtisodiy holat - bu o'quvchilarning oilaviy resurslarga (ya'ni iqtisodiy kapital, ijtimoiy kapital va madaniy kapital) egalik qilishi va o'quvchi oilasining/uy xo'jaligining ijtimoiy mavqeini qamrab olishga qaratilgan keng qamrovli tushunchadir. PISAda o'quvchining ijtimoiy-iqtisodiy holati iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy holatning PISA indeksi (ESCS) orqali o'lchanadi. ESCS qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy holat shunchalik yuqori hisoblanadi. ESCS shkalasining IHTT mamlakatlari bo'yicha o'rtacha qiymati 0 ga va standart chetlanishi 1 ga teng. ESCS - bu uchta tarkibiy qismdan olingan ma'lumotlarni yagona ballga birlashtiruvchi murakkab ko'rsatkich: ota-onalarning eng yuqori ta'lim darajasi; ota-onalarning eng yuqori kasbiy mavqeyi; va uy-joy mulki. Har bir o'quvchi uchun ushbu uchta komponent bo'yicha ma'lumotlar PISA kognitiv baholashdan so'ng o'quvchilar tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalar orqali to'plangan.

3-rasm. Ta'lim natijalaridagi tafovutga sabab bo'luvchi omillarning guruhlar kesimidagi ulushi (ball)



Manba: Repest moduli yordamida muallif ishlanmasi.

qiladigan 15 yoshli o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga ko'ra, quyi o'nlikda joylashgan oilalar farzandlarining taxminan har uch nafaridan birini (35,1 foiz), yuqori o'nlikda joylashgan oilalar farzandlarining esa har to'rt nafaridan birini (26,9 foiz) tashkil etadi (3-rasmga qarang).

Tahlil natijalariga ko'ra, o'quvchilarning uy vazifalarini bajarmasligi PISA test sinovi natijalarini o'rtacha 16 ballga, haq evaziga mehnat qilish esa 37 ballga kamaytirishi aniqlandi.

- **Ayrim hollarda o'quvchilarning maktabga nonushta qilmasdan kelishi diqqatni jamlashda qiyinchilik tug'dirib, ularning akademik muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir qilishi aniqlandi.** O'quv haftasi davomida

nonushta qilmaydigan o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga ko'ra, quyi o'nlikda joylashgan oilalar farzandlarining 13,6 foizini, yuqori o'nlikda joylashgan oilalar farzandlarining esa 9,5 foizini tashkil etadi (ular orasidagi farq 4,1 foiz bandi).

Tahlil natijalariga ko'ra, o'quvchilarning nonushta qilmasligi PISA test sinovi natijalarini o'rtacha 20 ballga kamaytiradi. Bunda nonushta qilmaslikning ta'siri ko'proq kambag'al oila farzandlariga ta'sir qiladi va ular nonushta qilmaydigan yuqori daromadli oilalarning farzandlariga nisbatan 34 ball kamroq ball oladi.

Xulosa qilib aytganda, kambag'al oilalarning farzandlari ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi barqaror bo'lgan oilalarning farzandlariga nisbatan past akademik natijalarga erishishi

ehtimoli yuqori. Tadqiqot natijalari bunga ularning uy vazifalarini bajarmasdan boshqa ishlar bilan band bo'lishlari (masalan, mehnat qilish), hamda ayrim hollarda maktabga nonushta qilmasdan kelishlari sabab bo'lishini ko'rsatdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda kambag'al oilalarning farzandlari sifatli ta'lim olishini ta'minlash maqsadida bir qancha chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Xususan, 2024-yil 13-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'tkazilgan va ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilgan ishlar va 2025-yildagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratildi:

- 2025-yilda kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan mingta mahallada bittadan oilaviy bog'cha faoliyatini yo'lga qo'yish;
- kambag'al oilalarning farzandlari maktabda chet tili, kasb-hunar va IT bo'yicha bepul bilim olishi uchun 500 milliard so'm ajratish;
- 1-martgacha to'garaklar ochib, kambag'al oilalardagi 118 ming nafar yoshlarni o'qitishni boshlash.

Ushbu chora-tadbirlar va tadqiqot natijalari, shuningdek, mavjud muammolar inobatga olingan holda kambag'al oilalar farzandlarining akademik natijalarini yaxshilash uchun quyidagilar taklif qilinadi:

- **Davlat ta'lim qonunchiligida (strategiyalar va konsepsiyalarda) maqsadli ko'rsatkichlarni xalqaro test sinovlari natijalari orqali hamda bir vaqtning o'zida guruhlar kesimida belgilash lozim.** Maqsadli ko'rsatkichlarni PISA yoki boshqa

turdagi xalqaro test sinovlarining natijalari ta'lim sifatining yillar mobaynidagi o'zgarishini monitoring qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, Oksford universiteti tadqiqotchilari maqsadli ko'rsatkichlarni xolislik (ing. impartiality) tamoyiliga asosan belgilash maqsadga muvofiqligini aytib, ularni turli guruhlar kesimida (yuqori-quyi daromadli oila farzandlari, shahar-qishloq va hokazo) belgilash muhimligini qayd etadi. Ushbu turdagi ko'rsatkichlarni belgilash ta'lim olish imkoniyatlarini tenglashtirish uchun sharoit yaratadi. Barcha uchun umumiy ko'rsatkichlar esa ma'lum bir guruhning yuqori natijasi evaziga o'rtacha qiymatning oshib ketishi ta'limdagi tafovutning oshishiga hissa qo'shadi.

- **Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar yashaydigan hududlardagi maktablarda sinov tartibida bepul tushlik hamda nonushta berish tizimini joriy etish.** Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislarining tadqiqoti O'zbekistonda maktablarda bepul tushlik berilishi davomatni 8 foizga oshirishini ko'rsatgan edi. Ushbu dalilni va yuqoridagi tahlil natijalarini inobatga olgan holda, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar yashaydigan hududlardagi maktablarda sinov tariqasida bepul tushlik hamda nonushta berish tizimini joriy etish hamda ularning samaradorligini aniqlash lozim.
- **Respublikamizda kambag'al oilalarning farzandlari uchun Shartli pul o'tkazish (ing. Conditional Cash Transfer) dasturini joriy etish.** Bunda ta'lim natijalarida ma'lum bir minimum ko'rsatkichga erishgan yoki tibbiy ko'rikdan har 6 oyda o'tgan kambag'al oila farzandlari ularga ma'lum miqdorda pul mablag'i berilishi orqali rag'batlantiriladi. Bu orqali bolalarning ta'lim natijalarini va sog'ligini yaxshilash ko'zda tutiladi. Ushbu turdagi shartli pul o'tkazish dasturi dunyoning bir qancha mamlakatlari, shu jumladan,

Meksika, Braziliya, Kolumbiya va Marokash kabi davlatlarda qo'llanilgan va ijobiy natija olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Angrist, Noam, Simeon Djankov, Pinelopi K. Goldberg, and Harry A. Patrinos. 2021. "Measuring Human Capital Using Global Learning Data." *Nature* 592 (7854): 403–8. <https://doi.org/10.1038/s41586-021-03323-7>.
- Becker, G. S. 1964. "Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education." *The Economic Journal* 76 (303): 635.
- Becker, Gary S. 1983. *Human Capital : A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. Chicago: University Of Chicago Press.
- Bourdillon, Michael, and Jo Boyden. 2014. *Growing up in Poverty : Findings from Young Lives*. Houndmills, Basingstoke, Hampshire: Palgrave Macmillan.
- Gennaioli, Nicola, Rafael La Porta, Florencio Lopez-de-Silanes, and Andrei Shleifer. 2012. "Human Capital and Regional Development." *The Quarterly Journal of Economics* 128 (1): 105–64. <https://doi.org/10.1093/qje/qjs050>.
- Islam, Md. Saiful, and Fakhre Alam. 2022. "Influence of Human Capital Formation on the Economic Growth in Bangladesh during 1990–2019: An ARDL Approach." *Journal of the Knowledge Economy*, March. <https://doi.org/10.1007/s13132-022-00998-9>.
- Pells, Kirrily, and Martin Woodhead. 2014. *Changing Children's Lives*. ODID, Oxford Department of International Development, Young Lives.
- Piao, Xiangdan. 2024. "Learning Quality, Its Inequality and Sustainable Development: Evidence from Global Learning Data." *Discover Sustainability* 5 (1). <https://doi.org/10.1007/s43621-024-00359-3>.
- Torpey-Saboe, Nichole. 2019. *Measuring Education Inequality in Developing Countries*. Springer International Publishing: Springer Cham. <https://doi.org/10.1007/978-3-319-90629-4>.
- Wiredu, John, Qian Yang, Usman Labaran Inuwa, and Agyemang Kwasi Sampene. 2023. "Energy Transition in Africa: The Role of Human Capital, Financial Development, Economic Development, and Carbon Emissions." *Environmental Science & Policy* 146 (August): 24–36. <https://doi.org/10.1016/j.envsci.2023.04.021>.
- World Bank. n.d. *World Bank Open Data*. <https://data.worldbank.org/indicator/SE.PRM.NENR?locations=XO>.
- Zhang, Yi, Sanjay Kumar, Xianhai Huang, and Yiming Yuan. 2023. "Human Capital Quality and the Regional Economic Growth: Evidence from China." *Journal of Asian Economics* 86 (February): 101593–93. <https://doi.org/10.1016/j.asieco.2023.101593>.